




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 8 558,2 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 6,2 % ni tashkil etib, 534,9 mlrd. so'm kiritildi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 8 023,3 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 93,8 % ulushini tashkil etdi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalar



## Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulushi %da

## O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



## Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulishi %da

## O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 3 292,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 246,7 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,9 %i yoki 676,4 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 865,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,0 %ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 77,5 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,9 %ini), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 206,4 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,4 %ini), Respublika budjeti 316,3 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,7 %ini), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 12,2 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,1 %ini) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlarini moliyalastirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘larida kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 246,7 %ga, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar mablag‘lari tomonidan esa 193,8 %ga o‘tdi.

*Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 76,5 %ni tashkil etib, **"Zarafshon Oyna" MChJ qo‘shma korxonasi** tomonidan deraza oynalari-shisha buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish va **"JV CONTINAZ" MChJ qo‘shma korxonasi** tomonidan esa karbamid formaldegid konsentratini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o‘zlashtirilgani bilan bog‘liq.*





















## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan %da):						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
<b>Navoiy viloyati:</b>	<b>8558,2</b>	<b>3,7</b>	<b>38,5</b>	<b>7,9</b>	<b>48,9</b>	<b>0,1</b>	<b>0,9</b>	<b>-</b>
<i>shaharlar:</i>								
Navoiy sh.	2367,8	2,4	13,6	0,8	9,9	0,02	0,9	-
Zarafshon sh.	844,4	0,3	5,0	0,5	4,1	0,02	-	-
G'ozg'on sh.	67,4	0,1	0,3	0,1	0,4	-	-	-
<i>tumanlar:</i>								
Karmana	1280,0	0,1	10,7	1,2	3,0	0,001	-	-
Konimex	152,2	0,1	1,4	0,3	0,1	0,001	-	-
Qiziltepa	321,3	0,2	1,1	1,0	1,4	0,01	-	-
Navbahor	199,9	0,2	0,9	1,1	0,1	0,01	-	-
Nurota	676,7	0,2	0,9	1,2	5,6	0,001	-	-
Tomdi	2098,7	0,04	0,6	0,1	23,8	-	-	-
Uchquduq	118,9	0,01	0,8	0,3	0,3	-	-	-
Xatirchi	430,9	0,2	3,2	1,4	0,2	0,09	-	-

\*Shahar va tumanlar tomonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

## 2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>
<b>Navoiy shahar</b>	140,4 % 	2367,8 	27,7 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	<b>Zarafshon shahar</b>
9,9 % 	844,4 	105,1 % 	
<b>G'ozg'on shahar</b>	155,5 % 	67,4 	0,8 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	<b>Karmana tumani</b>
15,0 % 	1280,0 	113,4 % 	
<b>Konimex tumani</b>	14,5 % 	152,2 	1,8 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	<b>Qiziltepa tumani</b>
3,8 % 	321,3 	132,7 % 	

## Navbahor tumani

*o'sish sur'ati*

88,1 %




*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

199,9



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

2,3 %



## Nurota tumani

*o'sish sur'ati*

341,4 %




*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

676,7




*Navoiy viloyatidagi ulushi*

7,9 %



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

24,5 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

2098,7



*o'sish sur'ati*

96,8 %



## Tomdi tumani

## Uchquduq tumani

*o'sish sur'ati*

178,1 %




*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

118,9



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

1,4 %



*Navoiy viloyatidagi ulushi*

5,0 %



*investitsiyalar hajmi,  
mlrd. so'm*

430,9




*o'sish sur'ati*

108,9 %



## Xatirchi tumani

## 2022- yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 341,4 %ga o'sib, Nurota tumanida kuzatildi. Bu asosan "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" aksiyadorlik jamiyati (Строительство комплекса по добыче и переработке золотосодержащих руд месторождения Пустали (ГМЗ-6)) rudani qazib olishni tashkil etish va qayta ishlash ishlarini tashkil etish bilan bog'liq.

Shuningdek, Uchquduq tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 178,1 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" aksiyadorlik jamiyati tomonidan (Строительство добычного карьера на базе месторождения Балапантау и Тамдыбулак. Отработка карьера "Мурунтау" 5 очередь, 1 этап. Строительство рудника по добыче и переработке золотосодержащих руд месторождения Ауминзо-Амонтайского рудного поля (ГМЗ-5)) rudani qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish hamda ishlab chiqarishni tashkil etish bilan izohlash mumkin.



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning  
texnologik tarkibi, (%da)**



Navoiy viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4 843,4 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 56,6 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 3 224,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 37,7 %) va boshqa xarajatlarga 490,5 mlrd. so'm (5,7 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida kuzatildi – 13,8 % yoki 1 180,1 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja G'ozg'on shahrida kuzatilib, 0,2 %ni yoki 18,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 20,6 % yoki 1760,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga  
investitsiyalarning takror  
ishlab chiqarish tarkibi  
(jami hajmdagi % da)**

**Yangi qurilish -  
68,3 %**

**Kengaytirish,  
rekonstruksiya,  
modernizatsiya - 22,1 %**

**Boshqa yo'nalishlar -  
9,6 %**

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 846,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 68,3 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1 892,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 22,1 %ini tashkil etdi. Qolgan 9,6 %i, ya'ni 819,3 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 298,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 73,6 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- metallurgiya sanoati – 2 800,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 32,7 %).
- boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish – 1 636,5 mlrd. so'm.
- kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish – 989,0 mlrd. so'm.

***Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga  
investitsiyalarning texnologik tarkibi***

*Jami hajmdagi ulushi %*

	<b><i>Qurilish montaj ishlari</i></b>	<b><i>Mashina, uskuna, inventarlar</i></b>	<b><i>Boshqa xarajatlar</i></b>
<i>Navoiy viloyati</i>	<b>37,7</b>	<b>56,6</b>	<b>5,7</b>
<b><i>shaharlar:</i></b>			
<i>Navoiy</i>	<b>13,8</b>	<b>12,1</b>	<b>1,7</b>
<i>Zarafshon</i>	<b>6,4</b>	<b>3,3</b>	<b>0,2</b>
<i>G'ozg'on</i>	<b>0,2</b>	<b>0,6</b>	<b>0,01</b>
<b><i>tumanlar:</i></b>			
<i>Karmana</i>	<b>3,4</b>	<b>9,8</b>	<b>1,7</b>
<i>Konimex</i>	<b>0,6</b>	<b>0,9</b>	<b>0,3</b>
<i>Qiziltepa</i>	<b>2,5</b>	<b>0,9</b>	<b>0,4</b>
<i>Navbahor</i>	<b>1,3</b>	<b>0,8</b>	<b>0,3</b>
<i>Nurota</i>	<b>3,0</b>	<b>4,4</b>	<b>0,6</b>
<i>Tomdi</i>	<b>3,8</b>	<b>20,6</b>	<b>0,2</b>
<i>Uchquduq</i>	<b>0,6</b>	<b>0,8</b>	<b>0,1</b>
<i>Xatirchi</i>	<b>2,2</b>	<b>2,4</b>	<b>0,4</b>


***Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda  
(2022- yil yanvar-iyun)***

	Jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, mlrd. so'm		<i>shundan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	
	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4183,3</b>	<b>100,0</b>	<b>865,4</b>	<b>100,0</b>
shaharlar:				
Navoiy	847,8	20,3	570,0	65,9
Zarafshon	347,6	8,3		
G'ozg'on	33,2	0,8	33,2	3,8
tumanlar:				
Karmana	255,7	6,1	168,5	19,5
Konimex	4,9	0,1	4,9	0,6
Qiziltepa	124,0	3,0	40,3	4,7
Navbahor	8,8	0,2	0,2	0,02
Nurota	481,9	11,5	16,9	2,0
Tomdi	2034,7	48,6		
Uchquduq	25,5	0,6	25,5	2,9
Xatirchi	19,2	0,5	5,9	0,6


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 3 976,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 206,4 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 76,5 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan  
Investitsiyalar hajmi, (ming soʻmda)**



Joriy davrda jami umumiy maydoni 304,3 ming kv.m boʻlgan 1025 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan boʻlib, ulardan umumiy maydoni 227,1 ming kv.m boʻlgan 762 ta uy-joylar qishloq joylarda foydalanishga topshirilgan.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(79) 223-54-73**  
**(71) 202-85-20**